

## ME'MORCHILIK OBIDALARIDAGI BEZAKLARDA ARABIY YOZUVLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS TOMONLARI. XATTOTLIKNING NAQQOSHLIK BILAN BOG'LIQLIGI

АРАБСКИЕ НАДПИСИ НА ОРНАМЕНТАХ АРХИТЕКТУРНЫХ  
ПАМЯТНИКОВ И ИХ ОСОБЕННОСТИ. СВЯЗЬ МЕЖДУ КАЛЛИГРАФИЕЙ  
И ЖИВОПИСЬЮ

ARABIC INSCRIPTIONS ON THE ORNAMENTS OF ARCHITECTURAL  
MONUMENTS AND THEIR PECULIARITIES. THE CONNECTION BETWEEN  
CALLIGRAPHY AND PAINTING

*Kenjayev Shavkat*

*Qarshi davlat universitetining pedagogika magistri*

**Annotatsiya:** Qadimdan Sharq mamlakatlari madaniyati, me'morchiligi boshqa xalqlar madaniyatidan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan. Shu jumladan, naqqoshlik hamda xattotlik sohasida ham o'z ishining ustasi bo'lgan va butun Sharqda nom taratgan bir qancha olim-u ustalar yetishib chiqqan. Bugungi kunda ham mavjud bo'lgan ko'plab me'morchilik obidalaridagi naqqoshlik ishlari, ulardagi arabiy yozuvlar o'zining nafisligi, jilodorligi, mukammaligi bilan sharq madaniyatiga qiziquvchilarni hayratga solib kelmoqda.

**Аннотация:** С древних времен культура и архитектура Востока отличались специфически от культуры других народов. В частности, он был мастером своего дела в области живописи и каллиграфии, произвел на Востоке ряд известных ученых и мастеров. Многие из сохранившихся до наших дней архитектурных памятников и арабские надписи на них поражают своей изысканностью, полировкой, совершенством тех, кто интересуется культурой Востока.

**Annotation:** From ancient times, the culture and architecture of the East have differed from the cultures of other nations. In particular, it was a master of its craft in the field of painting and calligraphy, and produced a number of famous scientists and masters throughout the East. Many of the architectural monuments that still exist today, and the Arabic inscriptions on them, amaze those who are interested in Eastern culture with their elegance, grace, and perfection.

**Kalit so'zlar:** naqqoshlik, xattotlik, sharq me'morchiligi, arabiy yozuvlar, Sultonali Mashhadiy ijodi, ustoz-shogird an'analari.

**Ключевые слова:** живопись, каллиграфия, восточная архитектура, арабская письменность, творчество Султанали Машхади, традиции учитель-ученик.

**Keywords:** painting, calligraphy, oriental architecture, arabic inscriptions

Xattotlik O'rta Osiyoda qadimdan rivojlangan. Xattotlik (kalligrafiya) - chiroyli va to'g'ri yozish san'ati, kitob ko'chirish kasbidir. Xattotlik tarixi yozuv taraqqiyoti va kitobatning asosiy silohi qalam (nayqalam) bilan chambarchas bog'liqdir. Yozuv va qalam paydo bo'lgandan keyin maxsus kishilar xattotlik bilan snug'ullana boshlaganlar. Ayniqsa, arab yozuvi tarqalgandan keyin xattotlik keng rivoj topgan.

Matbaachilik (matbuot) vujudga kelgunga qadar kitob tayyorlash, ularning nusxasini ko'paytirish ishi bilan xattotlar shug'ullanganlar. Saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida xattotlar jamoalari tashkil etilgan. Masalan, Mirzo Boysung'ur o'z saroyida 40 xattotdan iborat guruhni to'plagan edi. Shunday xattotlardan biri Sultonali Mashhadiy bo'lib, u 1432 - yilda tug'ilib, 1520 -yilda vafot etgan. U "Qiblatul kuttob" (kitoblar qiblasi) va "Sultonul - xattotayn" (xattotlar sulтони) kabi faxriy laqablar bilan mashhur bo'lgan. Unga shoirlik mahorati ham begona bo'lmagan. U- "yoshlikdan xatga maylim bor edi; uning ishqi ko'zimdan uyquni qochirar edi. Bekordan bekorga ko'p yurmasdan qo'limga qalam olardim. Ertalabdan kechgacha mashq qilar edim, shuning uchun menga na yotish va na yeyishning g'ami bor edi "mazmunida she'r bitgan. Sultonali Mashhadiy 1461 -yil Nizomiyning "Mahzanul - asror" masnaviysini, 1464 -yil Hofizning devoni, 1465-1466 -yillar esa Alisher Navoiyning q'azaliyot devonini kitobat qilib, shuhrat topdi. Keyinchalik Navoiyning taklifi bilan Mashhaddan Hirotga kelib, Husayn Boyqaro kutubxonasida xattotlarga boshchilik qilgan. Hozirga qadar u oqqa ko'chirgan 50 ta asar bizgacha yetib kelgan. Sultonali Mashhadiyning faoliyati borasida Hazrat Navoiy "Majolis-un-nafois"da, Qozi Ahmad va Som Mirzolar o'zlarining tazkiralarda ma'lumot berib o'tganlar.

Yaxshi va chiroyli yozishdan maqsad faqat oson o'qish emas, balki o'quvchiga estetik zavq baq'ishlash, yozuvni maleh va bade' qilishdir. Ta'kidlaganimizdek, xattotlik san'ati yaqin Sharq xalqlari o'rtasida arab yozuvi asosida keng tarqaldi, Arab yozuvining otilik silsilasi - suls, nasx, muhaqqaq, rayhon, tavqe va riqo yozuvlari arab xattotlik san'atiga asos soldi. Xattotlik usuli yozuv turiga bog'liqdir. Xattotlik o'z nazariy va amaliy qonunlariga ega ediki, xushnavislar bunga qat'iy rioya etar edilar. Xattotlik nazariyasiga X-XI asr mashhur xattotlari Abu Ali Muhammad (Ibni Muqla) va All Ibni Hilol (Ibni Tavvob) asos solganlar. Ular an'anasini Yoqut Musta'simiy nazariy jihatdan rivojlantirdi. Xattotlik san'ati ta'kidlaganimizdek muayyan qonun va talablarga asoslangan va bu talablar matematik aniqlikni talab qilar edi. Otilik tizimiga asoslangan xattotlik san'ati me'yor sifatida doira shaklini tanlar edi. Bu doira ichida tomonlari barobar uchburchak, kvadrat va beshburchak chizilib, undan harflar andozasi muayyan qilingan. Har bir harf uchun romb shaklidagi yuqoridan pastga qarab qo'yilgan nuqtalar ishlatilar edi. Yozuv turlariga qarab nuqtalar miqdori

o'zgartirilgan. Masalan, muhaqqaq yozuvi uchun sakkiz nuqta, suls yozuvi uchun yetti va tavqe yozuvi uchun olti nuqta muqarrar qilingan edi. Arab harflari yozilishiga ko'ra doira ichidagi uchburchak, kvadrat va beshburchak shakllaridan foydalangan. Dol, of, mim va vov harflarini yozishda uchburchakdan foydalansalar, jim harfining boshi va shunga o'xshash harflarni yozishda beshburchak andoza sifatida xizmat qilgan. Ba'zan bu murakkab sistema o'rniga oddiy usul –nuqtalar hisobi qo'llangan. Masalan, suls yozuvida alif harfi yetti nuqtaga, muhaqqaq yozuvida sakkiz nuqtaga, tavqe yozuvida oiti nuqtaga, "be" harfi esa suls yozuvida olti nuqtaga, muhaqqaqda yetti, tavqe'da besh nuqtaga, "jim" va "ayn" harflarining xatdan pastgi qismi suls yozuviga o'n yarim muhaqqaq va tavqe' yozuvlarida to'qqiz nuqta hajmida belgilangan va yozilgan. Xattotlik san'atini rivojlantirishda Ibn Muqla, Ibni Tavvob va Yoqut Musta'simiy bilan bir qatorda XV asrning mashhur xushnavisi Sultonali Mashhadiyning ham xizmatlari kattadir. Uning "Odob ul-mashq" risolasida birinchi bor chiroyli yozuvga o'rgatishning ikki usuli - nazariy va qalamiy usullari bayon etilgan. Nazariy usul o'tgan ustozlar yozuvini o'rganish va mushohada etishni taqozo etsa, qalamiy usul chiroyli nusxaga qarab payvasta mashq qilishni talab etadi.

Xushnavislar aksaran ikki tarzda jalliy va xafiy tarzida yozardilar. Odatan xafiy mashqi kunduzi, jalliy mashqi kechasi amalga oshirilardi. Chunki xafiy xati kichik yozilsa, jalliy yozuvi katta - katta yozilardi. Ko'pgina kitoblarning hoshiyalarida xafiy xatida kitobat qilingan yozuvlarni ko'ramiz. O'rta asrlarda har bir xushnavis hech bo'lmaganda uch xil yozuvda - suls, nasx, nasta'liq yozuvlarida mashq qilib bilar edi. Aksariyat oltilik va nasta'liq yozuvida juda yaxshi va chiroyli yozardi. Xushnavislarning asosiy qurollari siyoh, rangli jo'shalar, oq va rangli qog'oz, nayqalam, qalamtarosh, mistar, qalamdon, siyohdon, mehrak va qalamqat edi. Sultonali Mashhadiyning "Risolai xat", Mirall Hiraviyning "Midod ul-xutut" Mirimodi Qazviyning "Odob ul-mashq", Majnun ibn Kamoliddin Mahmudi Rafiqiyning "Risolai xati manzum", Shafyoniyning "Risolai xat", Fathulloh Ahmad ibn Muhammadning "Risola dar usul va qavoidi xututi sitta" kabi risolalarida siyohni tayyorlash texnologiyasi, nayqalam qog'ozning sifatini bilish usullari, umuman yozish qurollari borasida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Xushnavislikka ma'lum va joriy bo'lgan qoidalar o'n ikkilik qoidasi deb nomlanardi va bular: usul, tarkib, kursi, suud, nuzul, nisbat, davr, sath, quvvat, za'f, safo va nishon edi. VII asrda arab yozuvining keng tarqalgan uslublaridan biri kufiy xati ixtiro qilinguncha (ixtirochisi Ya'rab ibn Kahton) O'rta Osiyoda turli yozuv usullari mavjud bo'lgan. Masalan, makkiy, madaniy, basariy va boshqalar. Bu xatlardan oldinroq ma'qaliy (tik chiziqli) yozuvi mavjud edi. Kufiy yozuvi ko'pincha madaniy yodgorliklarning naqshlarida saqlanib qolgan. Xalifa Muqtadir zamonida yashagan olim Ibn Muqla' (864-934)ni xatti sitta (olti xil yozuv: suls, nasx, muhaqqaq, rayhoni, tavqe', riqo') ixtirochisi deb tan olganlar.

Vaqt o'tishi bilan kufiy yozuvining turli variantlari ixtiro qilingan. Qur'oni Karimning ilk namunalari shu yozuvda yozilgan. Zamonlar o'tishi bilan xattotlar bu yozuvni ham binolarning bezaklarida ishlatganlar. Muhaqqaq yozuvi kufiyning bir oz o'zgartirilgan shaklidir. Rayhoniylar uslubi muhaqqaq yozuviga o'xshagan, lekin harf shakllari rayhon barglariga o'xshagani uchun shu nomga loyiq topilgan. Nasx yozuvi kufiy va muhaqqaq xatlaridan ko'ra Qur'on ko'chirishda ma'qulroq topilgan. Tavqe' yozuvi esa asosan buyruq va farmonlar yozishda qo'llangan. Riqo' yozuvi tavqe'ga ancha yaqin, lekin undan nozikroq. Asosan munshaot (maktub yozish)da ishlatilgani va qog'ozlarga nafis qilib yozilgani uchun riqo' deb atalgan. Mazkur yozuvlardan tashqari tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro va boshqa xat turlari ham bo'lgan. Tug'ro imzo qo'yishda ishlatilgan. XV asr boshlaridan kitob ko'chirishda (fors-tojik va eski o'zbek tillarida) nasta'liq xati rasm bo'ldi. Hazrat Alisher Navoiy ta'biricha, "xattotlar sultoni" bo'lgan Sultonali Mashhadiy *nasta'liq* xatini ajoyib san'at darajasiga ko'targan ekan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Юксак маънавият энгилмас куч .Т.: Маънавият, 2009.
2. Каримов И. А. Жахон молиявий – иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. Т., 2009.
3. Каримов И . А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. Т., Ўзбекистон, 2009.
4. Авесто.-Санъат №3, 11, 1993.
5. Қуръони Карим Т., Чўлпон, 1992.
6. Ал-Бухорий. Ҳадис. 1-4 китоблар. Т., 1993-1998 йиллар